

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “USTOZ” HIKOYASIDA XARAKTER YARATISH MAHORATI

Qayumova Gulsanam Sadriddin qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning “Ustoz” hikoyasidagi inson xarakteri yorilib berilgan. Ustoz va shogird o‘rtasidagi munosabatlar, bir kamtarin va samimi yigitning boshidan kechirgan qiyinchiliklari, ruhan va jismonan tanazzulga yuz tutgani, ya’hi qurban bo‘lgani tasvirlangan. Davr nuqtai nazaridan o‘z zamonasining zayliga qarab yashagan “vijdonli” ustozning qo‘rroqlik sabab, yaxshi bir iste’dodning o‘limiga sababchi bo‘lib qolgani bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, asar, tarbiyaviy mazmun, xarakter - xususiyat, yozuvchi mahorati

Shukur Xolmirzayev ijodi hozirgi zamон o‘zbek adabiyotining yorqin va mazmundor sahifalaridan birini tashkil etadi. Ko‘p qirrali iste’dod sohibi Shukur Xolmirzayev adabiyotimizning turli janrlarida rang-barang badiiy asarlar yaratib, o‘zbek adabiyoti xazinasini boyitgan. Yozuvchi hikoyanavis sifatida qaysi mavzuni qalamga olmasin, qandaydir muhim, salmoqdur ijtimoiy fikrni ifodalashga intiladi. Uning bu xususiyatlari, ayniqsa, keyingi yillarda yaratilgan “Shudring tushgan bedazor”, “Cho‘loq turna”, “Podachi”, “Ko‘k dengiz”, “Xorun-ar-Rashid”, “Qadimda bo‘lgan ekan”, “Tabassum”, “Ustoz”, “Farzand” kabi hikoyalarida yaqqol namoyon bo‘lgan.[1] Yozuvchi hikoyalarida yuz berayotgan hodisalar hayotimizdagи kabi ro‘yi rost, hech qanday mubolag‘asiz tasvirlanadi. Asar qahramonlariga diqqat qilar ekanmiz ularning barchasi kundalik hayotimizda uchratgan ba’zi bir insonlarga o‘xshash. Sababi yozuvchi o‘zi guvohi bo‘lgan, ko‘rgan hayoti davomida uchratgan, suhbatta bo‘lgan insonlarni o‘z asarlariga qahramon qilib olgan. Hikoyalari hajm jihatdan katta bo‘lmasada, ancha dolzarb va keng qamrovli. O‘qiguvchi kitobxonni mushohada qilishga, fikrlashga undaydi. Darhaqiqat, “Ot egasi”, “Omon ovchining o‘limi”, “Bitiktosh”, “Xumor” kabi hikoyalaridagi har bir personaj o‘zining salbiy va ijobiy hislatlariga ega bo‘lishi bilan birgalikda, tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Quyida Shukur Xolmirzayevning “Ustoz” hikoyasi tahlili orqali ijodkorning hikoyaga yuklagan ma’no va mazmuni, g‘oyasi, hikoya qahramonlarining xarakter-xususiyatini tahlil qilamiz. Agar obrazni yong‘oqqa qiyoslasak, xarakter (yunoncha , charakter-xususiyat, belgi) shu yong‘oqning mag‘zidir. Chunki mag‘izda yong‘oqning mohiyati, tirikligi, zaruriyligi, joni jamuljamdir. Shu sabab “xarakter yaratilsagina- badiiy asar yaratiladi” (N.Pagodin) degan qat’iy va aniq xulosani chiqarish mumkin. Izzat Sulton tavsiya etganidek, “Asar mazmuni xarakter tasviri tufayli hayotiy aniqlik kasb etadi va shu bilan birga, bizning hislarimizga ta’sir etish xosiyatiga ega bo‘ladi”.[5] To‘g‘ri gap: “Har qanday muhim g‘oya ham inson qismatiga aylanmasa quruq gap bo‘lib qolaveradi” (O‘.Hoshimov) [2;34]. Ushbu hikoyaning bosh markazida ustoz obrazi turadi. Hikoya boshdan oxir ustoz tilidan hikoya qilinadi. Ustoz yozuvchilar uyushmasiga kirganda uni bir bola kitob do‘koni yonida kutib turadi. Bola bir-ikki mashqlarini ustozga ko‘rsata turib, agar yoqmasa axlat paqirga yirtib tashlashini aytadi. Unga qiziqib qolgan ustoz qo‘lyozmasini uyiga olib kelib o‘qiydi. Ustoz shogirdining yozganlari, talanti, iste’dodi haqida gapirib, uning yozganlarida qo‘llangan detallar Qahhordayam, Chexovdayam yo‘qligini ta’kidlaydi. Ushbu holat asarda shunday keltiriladi: “*Qani, nima yozibdi ekan deb varaqlay boshladim-u, uzilolmay qoldim. U bir balo ekan: tasvirlaydigan narsasini shunday yaxshi biladiki! Lupa bilan qaraganmi deysan.*



1163-

Qahramonlarning dialogi. Ko 'tarilgan problemalarini aytmaysanmi!..Ha, hech kimga o 'xshamaydigan talant edi." [3]

Asarda har ikki qahramonning ham bir-biri bilan bo'lgan munosabatida ustoz va shogirdning dunyoqarashi, qolaversa o'sha davr ijtimoiy-siyosiy ahvoli ham ochib berilgan. Ustoz shogirdiga yordam bermoqchi bo'ladi, ammo shogirdining hayiqmay haqiqatni boricha yozishi, shuningdek ustozning zamona zaylidan qo'rroqligi, o'zi bilib-bilmagan holatda shogirdining oyog'iga bolta urishiga sabab bo'ladi. Shogirdining yozganlari hech bir nashriyotda qabul bo'lmaydi. Kamtar va samimiyl, qobiliyatli yosh yigit hikoyalarining bosilmaganidan ruhiy zarbaga uchraydi.

"Meni bilasan, birovdan tilim qisiq joyim yo'q, hamma narsam bor: mashina, dacha; kitoblarim chiqib turibdi. Nimadan qo 'rqaman?..Faqt ehtiyot bo 'lish kerak: odam og 'ziga ehtiyot bo 'lishi kerak. Til o 'lgur yomon: bejiz tilni "suyaksiz" demaydilar. Har xil gapni har kimning oldida gapiravermaslik kerak. To 'g'ri endi, hozir rostgo 'ylik-modada. Ammo moda -o 'tkinchi. Siyosatning buqalamundan fargini ko 'rganmiz-da. Meni bir shogirdim bo 'lardi. Sen uni bilmaysan: asarlari chiqmadi. Eh, attang. O 'ziga o 'zi qildi. Keyin... Juda dangalchi edi-da. Eng "nozik" gaplarni ham bemalol gapiraverardi. Kattani-katta, kichikni-kichik demasdi. Ko 'ngliyam ochiq edida ul bechoraning. Masalan, bir joyda raykom sekretarini tanqid qiladi...Bilaman Markazqo 'mning ko 'ziga cho 'p solib yurgan arboblar ham bor! Ammo ularni adabiyotga olib kirib urish?"

Yo 'o 'q... Oddiy xo 'jalik odamini ol: ana uni xohlagancha tanqid qilaver".[3]

Dunyoda hamma narsadan ham qo'rroqlik yomon deyishadi. Ustoz ham ayni shunday qo'rroqlardan edi. O'zi qo'rqib yashagan, boshiga tushishidan hayiqib hayot kechirgan, ijod qilgan narsalari shogirdining boshiga tushishini istamaydi. Shu sabab ham haqiqatgo'y shogirdini qo'llash bilan birga uning kelajagiga bilib-bilmay bolta urib qo'yaveradi. Qo'rqqanga qo'sha ko'rindi deganlaridek, ustoz ham salgina narsaga hadiksirayveradigan, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy vaziyatiga moslashib yashaydigan, harakatlanadiganlar toifasidan. Talantli yosh yozuvchining jurnalda bosilay deb turgan hikoyalari ustozning bir og'iz psandasi bilan qaytib beriladi. Nashriyot direktorini hikoyalar to'plamini chiqarishga ko'ndiradi-yu, qo'lyozmada qaltis joylar borligini kishi bilmas tarzda eslatib, to'plamning rad etilishini ta'minlaydi. Ustoz - o'z bo'yicha, yosh talatlarga yo'l beradigan, vaqt kelsa, ularning boshini silaydigan odam. Ammo u yoshlarning boshini shunday silaydiki, silangan bosh yo uchib ketadi yoki po'la bo'ladi.[4;352] Bo'lib o'tgan voqealardan ruhan istirobga tushgan yosh yigit jigari shamollagani tufayli kasalxonaga tushib qoladi. Ustozini eslab xat yozadi. Ustoz xatni olgach keladi. Ular bir oz gaplashib o'trigach, shogirdi yetim, bolalalari tashlab ketgan bir rus kampirning balkonida - ijaraga turishini biladi. Ustoz shogirdiga qanchalik yordam berishni xohlamasin, qo'rroqligi tufayli hammasi teskari bo'laveradi. Davolantirish uchun hukumatga yaqin shifoxonaga yotqizmoqchi bo'ladi. Harakatlari ko'ngildagidek ketayotgan bir vaqtda, shogirdini o'ylab aytgan gaplari, shogirdining qarovsiz qoldirilishiga va qurban bo'lishiga sabab bo'ladi. "U meni koridorga kuzatib chiqdi. Xayrlashayotib... nima deb o 'ylaysan?.. Indamay ketishim kerakmidi?

Yo 'q. Vijdonim yo 'l qo 'ymasdi, Qurg 'ur vijdon azobi qattiq bo 'ladi-da! Buning ustiga u menga shogird bo 'lgandan keyin, uni bu yerga o 'zim keltirib yotqizgandan keyin ...haligi mas'uliyati ham bo 'ynimda bo 'ladi..."

- Kechirasiz, - dedim. - Juda yaxshi, o 'ta talantli bola-yu, ba'zan jindak, nima desam ekan, betga choperlik odati bor...

*Yosh-da. Sizlarda hukumat odamlari kelib davolanadi...Shu, nima desam ekan, uqtirib qo 'yasizmi..."[3] "Joy bo'shashi bilan olib kelamiz", – degan shifokorlar ustozning gapidan keyin bolani ko'chirishmaydi. Shahar chekkasidagi, aytgili yo'q shifoxonada dori-darmonsiz qolgan bola nobud bo'ladi... Ustoz bo'lsa yana o'zini vijdon azobidan qutqarish uchun "**Uni kim o 'ldirdi?..Odamlar mana shunaqa. Qo'rroq vahimachi, vijdonsiz!"**" [3] – deb boshqalarni ayblaydi.*



1163-

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, badiiy asarning salmoqdarligi, inson ichki olami, ruhiy iztiroblar-u, tuyg‘ular tovlanishini butun murakkabligi bilan ko‘rsata olishi Shukur Xolmirzayev asarlarining asosiy jihatlaridan biridir. U inson qadri, bir-biriga bo‘lgan munosabatlarni turli xil taqdirlar ko‘nglidan izladi. Bu borada muallifning badiiy mahorati, inson xarakterini chuqur anglab tasvirlashi uning hikoyalarida yaqqol sezilib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Samarqand, 2012.
2. Xolmirzayev Sh. "Saylanma" hikoyalar to'plami. II- Jild.
3. Qozoqboy Yo'ldoshev. Yoniq so‘z. Toshkent: "Yangi asr avlod", 2006.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2005.
5. Bio.uz sayti.

